



FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2021 - yil 19 - noyabr

50-11-163-F/21

Farg'ona tumani hokimligi

“Yong‘in xavfsizligi oyligi”ni o‘tkazilishini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-apreldagi 207-F-sonli Farmoyishi, 17-sentyabrdagi 576-sonli qarori hamda Prezident huzuridagi Xavfsizlik kengashining 19-oktabrdagi topshirig‘i ijrosini ta‘minlash yo‘lida, Farg‘ona tumani hududidagi iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha ob‘yektlari hamda aholi turar sektori, shu jumladan ko‘p kvartirali uy-joylarni 2021-2022-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlashni ta‘minlash maqsadida tuman hokimiyati, Favqulodda vaziyatlar bo‘limi, Ichki ishlar bo‘limi, tuman Tibbiyot birlashmasi, tuman Mahalla va oilani qullab-quvvatlash bo‘limi, tuman prokuratura, “HududgazFarg‘ona” Farg'ona tumani bo‘limi, “Hududiy elektr tarmoqlari” korxonasi, Yong‘inga qarshi kurash jamiyati va ularning joylardagi mutahassislaridan iborat tuzilgan komissiyalar va sektorlar kesimidagi ishchi guruhlar tomonidan yong‘inlar, is gazidan zaharlanish hamda gaz va havo aralashmasining chaqnashlari bilan bog‘liq baxtsiz hodisalarni oldini olish borasida bir muncha amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilganligiga qaramay, kunni sovib ketishi bilan birga bunday holatlarning soni, eng achinarlisi esa ularda insonlarni turli darajali tan jarohati olishi va halok bo‘lishi holatlari ortib ketishi kuzatilmoqda.

Xususan, joriy yilning o‘tgan davri mobaynida tumanimizdan sodir bo‘lgan yong‘inlar soni 46 tani tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davrga nisbatan 16 taga oshgan.

Yong‘inlarda insonlarni halok bo‘lish holatlari 1 tani tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davrga nisbatan halok bo‘lganlar 1 taga ko‘paygan, tan jarohati olish holatlarning soni teng bo‘lib qolmoqda.

Tabiiy va suyultirilgan gazdan foydalanish xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaganligi natijasida joriy yilning shu kunga qadar jami 2 ta favqulodda holatlar qayd etilib, shundan 2 nafar fuqaro is gazidan zaharlanib vafot etgan, 1 tasida gaz va

havo aralashmasining chaqnashi oqibatida 2 nafar fuqaro tan jarohati olib, ulardan 1 nafari shifoxonada vafot etgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari – Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha Hukumat komissiyasi raisi A.J.Ramatov tomonidan 2021-yil 2-noyabr kuni tasdiqlangan 23-sonli bayoni ijrosini ta‘minlash maqsadida,

1. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari – Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha Hukumat komissiyasining 2021-yil 2-noyabr kuni tasdiqlangan 23-sonli bayoni (05-25/14-45, 02.11.2021-y.) nazorat va ijro uchun qabul qilinsin;

2. Mazkur bayonning 3-bandiga asosan viloyat hududida **joriy yilning 15-noyabrdan 15-dekabrga qadar** “Yong‘in xavfsizligi oyligi” o‘tkazilsin;

3. Tumanda yong‘in xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan tadbirlarni bajarilishini tashkillashtirish, yong‘in xavfsizligi oyligini o‘tkazish bilan bog‘liq muammolarni tezkorlikda hal etish maqsadida **1-ilovaga muvofiq** “Yong‘in xavfsizligi oyligi”ni tashkil etish va o‘tkazish tuman komissiyasi tarkibi;

4. Tuman komissiyasi hokimlik qoshida tuziladigan komissiyalar faoliyatini tashkil etish hamda sektorlar kesimida tashkil etilgan ishchi guruhlar tomonidan amalga oshiriladigan namunaviy chora-tadbirlar rejasi **2-ilovaga muvofiq** tasdiqlansin;

5. Tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi (I.Xamdamov), tuman Ichki ishlar bo‘limi (E.Bababekov), tuman prokurori (O.Axrarov), “Hududgazta‘minot” AJ Farg‘ona HGTF (Z.Umirzoqov), “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Farg‘ona hududiy korxonasi (Sh.Xomidjonov), tuman Mahalla va oilani qullab-quvvatlash bo‘limi (D.Ergasheva), tuman uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi (G.Jo‘rayeva), Yong‘inga qarshi kurash jamiyati (M.Qosimov), tuman tibbiyot birlashmasi (E.G‘ulomov), Xalq ta‘limi bo‘limi (G‘.Ortiqov), tuman Maktabgacha ta‘lim bo‘limi (G.Karimova):

- oylik davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni umumlashtirish, tahlil qilish va tegishli tuman komissiyasiga hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligiga taqdim etib borish uchun tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi qoshida tegishli tashkilot va idoralar vakillaridan iborat ishchi guruhlar tuzilib, faoliyat yo‘lga qo‘yilsin;

- **2021-yil 12-noyabrga qadar** “Yong‘in xavfsizligi oyligi” o‘tkazilishini

tashkil etishda har tomonlama amaliy yordam ko'rsatish va beliglangan tadbirlarni bajarish yuzasidan nazorat o'rnatish maqsadida, **tuman komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlangan alohida jadval asosida** tuman hokimiyati mutasaddilarini va tuman tashkilotlari rahbarlari biriktirilib, safarbar etilsin;

- **har 10 kunda** mazkur oylikning borishini muhokama qilish va unda mutasaddi rahbarlarning hisobotlarini eshitish vazifasi yuklatilsin.

6. "Vodil yog'dusi" gazetasi (S.Dadaxo'jayev) tuman aholisiga **"Yong'in xavfsizligi oyligi"** ni o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad va mohiyatlarini, joylarda amalga oshirilayotgan ishlar va ko'rilayotgan chora-tadbirlarni keng yoritib borsinlar.

- yong'inlar, is gazidan zaharlanish, gaz va havo aralashmasining chaqnashlarini oldini olish mavzusidagi ijtimoiy roliklarni muntazam ravishda namoyish etilishi ta'minlansin.

7. Mazkur farmoyish ijrosini tashkil etishni va nazorat qilib borish vazifasi tuman hokimi o'rinbosari (O'.Teshajonov), hamda tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi boshlig'i (I.Xamdamov)lar zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



Sh.Muminov

Фарғона туман ҳокимининг
2021 йил 19 ноябрдаги
50-11-163-F/21-сон фармойишига
1-илова

Farg‘ona tumani hududida 2021-yil 15-noyabrdan 15-dekabrga qadar “Yong‘in xavfsizligi oyligi” ni tashkil etish va o‘tkazish tuman komissiyasi

TARKIBI

Komissiya raisi		
1	Tuman hokimining o‘rinbosari	O‘.Teshajonov
Komissiya raisi o‘rinbosari		
2	Tuman FVB	I.Xamdamov
Komissiya a‘zolari		
3	Tuman IIB	E.Bababekov
4	Tuman prokurori	O.Axrarov
5	“Hududgazta‘minot” AJ Farg‘ona HGTF	Z.Umirzaqov
6	“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ FHK	Sh.Xomidjonov
7	Mahalla va oilani qullab-quvvatlash bo‘limi	D.Ergasheva
8	Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi	G.Jo‘rayeva
9	Yong‘inga qarshi kurash jamiyati	M.Qosimov
10	Tuman tibbiyot birlashmasi	E.G‘ulomov
11	Xalq ta‘limi bo‘limi	E.Ortiqov
12	Maktabgacha ta‘lim bo‘limi	G.Karimova

Фарғона туман ҳокимининг
2021 йил 19 ноябрдаги
50-11-163-F/21-сон фармойишига
2-илова

“Yong‘in xavfsizligi oyligi”ni o‘tkazish bo‘yicha namunaviy chora-tadbirlar

REJASI

T/r	Tadbirlar nomi	O‘tkazish vaqti	Bajarish uchun mas‘ul
Tashkiliy tadbirlar			
1.	Tumanda yong‘in xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan tadbirlarni bajarilishini tashkillashtirish, yong‘in xavfsizligi oyligini o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni tezkorlikda hal etish maqsadida farmoyish bilan “Yong‘in xavfsizligi oyligi”ni tashkil etish va o‘tkazish komissiyalarini tuzish hamda ularning faoliyatini ushbu chora-tadbirlar rejasi asosida tashkil etish.	20-noyabrga qadar va oylik mobaynida	Tuman xokimligi, tegishli tashkilot va idoralar
2.	Oylikni samarali o‘tkazish tadbirlarini ishlab chiqish, ularda yong‘in xavfsizligini ta‘minlashga daxldor bo‘lgan barcha idoralarning vazifalarini belgilash.	20-noyabrga qadar	Tuman xokimligi, tegishli tashkilot va idoralar
3.	Oylik davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni umumlashtirish, tahlil qilish va tegishincha tuman Komissiyasiga hamda viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga taqdim etib borish uchun tuman favqulodda vaziyatlar bo‘limi qoshida tegishli tashkilot va idoralar vakillaridan iborat ishchi guruhni tuzish va faoliyatini yuritish.	22-noyabrga qadar va oylik mobaynida	Tuman xokimligi, tegishli tashkilot va idoralar
4.	Oylik o‘tkazilishini tashkil etishda har tomonlama amaliy yordam ko‘rsatish va belgilangan tadbirlarni bajarish yuzasidan nazorat o‘rnatish maqsadida tuman hokimligi mutasaddi xabarlarini biriktirib, safarbar etish.	22-noyabrga qadar va oylik mobaynida	Tuman xokimligi, tegishli tashkilot va idoralar
5.	“Yong‘in xavfsizligi oyligi”ni tashkil etish va o‘tkazish komissiyalari tomonidan har o‘n kunda oylikning borishini muhokama qilish va unda mutasaddi rahbarlarning hisobotini eshitish.	Har 10 kunda	Tuman xokimligi
6.	Jamoatchilikni “Yong‘in xavfsizligi oyligi” doirasida o‘tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etishga keng jalb etish.	Oylik mobaynida	Tuman xokimligi
Yong‘in xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha asosiy tadbirlar			
7.	Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, davlat yong‘in nazorati organlari va boshqa daxldor idoralar vakillari bilan birgalikda yong‘in xavfsizligini ta‘minlash masalalari uzoq vaqtdan buyon hal etilmay kelinayotgan ob‘ektlar va aholi puntlariga reydlar uyushtirish.	Oylik mobaynida	Tuman xokimligi, tegishli tashkilot va idoralar
8.	Hokimlik, korxonalar va tashkilotlar majlislarida o‘zlariga qarashli ob‘ektlar va uy-joy fondining texnik holati, yong‘in xavfsizligi masalalarini ko‘rib chiqilishini tashkillashtirish, bunda gaz, energetika, suv xo‘jaligi va isitish moslamalarining holati va sozligiga alohida e‘tibor qaratish.	Oylik mobaynida	Tuman xokimligi, tegishli tashkilot va idoralar

T/r	Tadbirlar nomi	O'tkazish vaqti	Bajarish uchun mas'ul
9.	Ob'ektlar va uy-joy fondini yong'inga xavfsiz holatga keltirish uchun ajratilgan mablag'larning qat'iy ravishda maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o'rnatgan holda o'ziga qarashli yong'inga qarshi himoya tizimi va vositalarini, yong'inga qarshi suv ta'minoti manbalari (gidrantlar, rezervuarlar, suv hovuzlari, ichki yong'in o'chirish jo'mraklari)ni soz holatga keltirish chora-tadbirlarini ko'rish.	Oylik mobaynida	Tuman xokimligi, tegishli tashkilot va idoralar
10.	Yong'in xavfsizligi qoidalari buzilishining har bir holati bo'yicha puxta tekshiruvlar o'tkazish, yong'in ro'y berishiga yo'l qo'ygan mutasaddilarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq choralar ko'rish.	Oylik mobaynida	Tuman xokimligi, tegishli tashkilot va idoralar
11.	O'ta muxim va toifalangan ob'ektlarning ishchi va xizmatchilariga yong'in xavfsizligi talablarini o'rgatish maqsadida uchrashuv va seminarlar, yong'inni o'chirishning birlamchi vositalarini qo'llash bo'yicha amaliy mashg'ulotlar, ko'ngilli yong'in o'chirish drujinalari orasida musobaqalar o'tkazish.	Oylik mobaynida	Korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
12.	Ob'ektlarda maxsus xizmatlar kuch va vositalarini jalb qilgan holda ko'rgazmali yong'in o'chirish taktik mashq va mashg'ulotlar o'tkazish hamda yong'in-qutqaruv texnikalarining taktik imkoniyatlarini namoyishini tashkil etish.	Oylik mobaynida	Tuman xokimligi, tegishli tashkilot va idoralar
13.	Yangi qurilayotgan bino va inshootlarda qurilish-montaj ishlari amaldagi shaharsozlik normalari va qoidalari talablari, shu jumladan yong'in xavfsizligi talablari asosida amalga oshirilayotganligini o'rganish.	Oylik mobaynida	Tuman xokimligi, tegishli tashkilot va idoralar
14.	Mahalla faollarini keng jalb qilgan holda aholi orasida yong'in xavfsizligini ta'minlash borasidagi tushuntirish ishlarini kuchaytirish, yong'inlarga va boshqa baxtsiz hodisalarga olib kelishi mumkin bo'lgan qonunbuzarliklar yuzasidan qat'iy choralar ko'rish.	Oylik mobaynida	Tuman xokimligi, tegishli tashkilot va idoralar
Yong'inlarni oldini olishga qaratilgan targ'ibot masalalari			
15.	"Yong'in xavfsizligi oyligi"ning o'tkazilishini ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish, oylikni targ'ib qiluvchi hamda yong'in xavfsizligi bo'yicha mavzuga oid maxsus videoroliklar ishlab chiqish va ularning muntazam namoyish etilishini ta'minlash.	Oylik mobaynida	"Vodil Yog'dusi" taxririya, tuman hokimligi axorot xizmati
16.	Hayr-ehson qiluvchilarning mablag'larini jalb etgan holda yong'in xavfsizligi mavzusida plakatlar, bukletlar va boshqa turdagi ko'rgazmali tashviqot materiallari chop etilishini tashkil etish.	Oylik mobaynida	Tuman xokimligi, tegishli tashkilot va idoralar
17.	Jamoat transporti va aholi ko'p to'planadigan joylarda oylik o'tkazilayotgani haqidagi reklama yozuvlarni, plakatlarni joylashtirish.	Oylik mobaynida	Tuman xokimligi, tegishli tashkilot va idoralar

T/r	Tadbirlar nomi	O'tkazish vaqti	Bajarish uchun mas'ul
18.	Tashkilotlar ishchi-xizmatchilari, ta'lim muassasalari o'quvchilari va aholi o'rtasida yong'inga qarshi targ'ibot o'tkazish va yong'in xavfsizligi chora-tadbirlarini qo'llashni o'rgatish ishlarini kuchaytirish, jamoatchilikni yong'inlarning oldini olish tadbirlariga keng jalb etish maqsadida ko'rgazmali-o'quv seminarlari hamda mahallalarda aholi bilan tasdiqlangan reja-grafiklar asosida bevosita rahbar xodimlar ishtirokida uchrashuvlar tashkil etish.	Oylik mobaynida	Tuman xokimligi, tegishli tashkilot va idoralar
19.	Maktab, maxsus maktab internat, litsey va boshqa ta'lim-tarbiya maskanlarida bolalarning savodxonligini oshirish maqsadida yong'in xavfsizligi mavzusida turli viktorinalar va yosh yeng'in o'chirish drujinalaarining musobaqalarini o'tkazish.	Oylik mobaynida	Tuman xokimligi, tegishli ta'lim tashkilot va idoralar
20.	Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, gaz va elektr idoralari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari bilan hamkorlikda oylik mobaynida va kuz-qish mavsumini betalofat o'tkazish borasida qo'shma reydlar tashkil etish, ularning natijalarini ommaviy axborot vositalarida keng yorish.	Oylik mobaynida	Tuman xokimligi, tegishli tashkilot va idoralar